



ALISHER NAVOIYNING DINIY-GUMANISTIK QARASHLARI

Hoshimxonov Mo'min

Konferensiya

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14862711>

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada o'zbek shoiri va mutafakkiri, turkiy she'riyatning ulkan yalovbardori va dahosi, she'riyat sultoni, naqshbandiya tariqatining targ'ibotchisi bo'lgan Alisher Navoiyning diniy-gumanistik qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xojagon, naqshbandiya, timsol, olam, tarix, ma'rifat, gavhar, sulton, maqbara, Ismoil Safaviy, Hirot, mumtoz, Navoiy, Foniy, devon, nazira, munojot, sunniy, shia, temuriy, xalifa, shayx, imom, musulmon, quyosh, Masih, Alloh, rivoyat, afsona, hikmat, Qur'on.

Inglizcha:

Mazkur ilmiy maqolada Navoiyning salafi, ustoz va piri Abdurahmon Jomiy va alloma mutafakkir shoir Navoiy haqidagi falsafiy fikrlari tahlili berilgan.

Xoja Bahouddin Naqshband (1318 - 1389) hayoti va faoliyati, xojagon-naqshbandiya ta'limoti tarixi, g'oyalari targ'ibi, bu tariqat vakillari hayoti va faoliyati bo'yicha turkiy tilda ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri asarlaridan ko'ra boyroq va mukammalroq boshqa biron manba yo'q. Shuning uchun Naqshband va Navoiy masalasi faqat adabiyotshunoslikka emas, amalda dinshunoslik, tasavvufshunoslik, falsafashunoslik, tarixshunoslik, ma'naviyatshunoslik, mafkurashunoslik va fanning yana ko'plab sohalari izchil shug'ullanishi lozim bo'lgan mavzu hisoblanadi. Binobarin, hozirgacha bu borada bir qadar ilmiy ishlar dunyoga keldi va ilgari yaratilgan ayrim kitoblar ham chop etildi.

Navoiy asarlarida Xoja Bahouddin Naqshband ta'rifi masalasini yoritish uchun, avvalo, ulug' mutafakkir merosida ana shu buyuk avliyoga, umuman, naqshbandiya tariqatiga munosabat, shuningdek, shoir ijodida bu ta'limot g'oyalari targ'ibining ko'rinishlari va yo'nalishlarini aniqlab olish lozim.

Masalaga shu jihatdan yondashsak, quyidagi manzara namoyon bo'ladi:

1. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyatini yoritish ("Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim al- futuvvat").

2. Xojagon-naqshbandiya tariqati vakillari hayoti va faoliyatini yoritish ("Nasoyim ul- muhabbat min shamoyim al-futuvvat", "Xamsat ul-mutahayyirin ", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher ", "Holoti Paxlavon Muhammad ", " Majolis un-nafois ", "Siroj ul-muslimin ", "Muhokamat ul- lug'atayn ", "Tarixi anbiyo va hukamo ", "Arba'in ").





3. Naqshband va naqshbandiylar badiiy timsollarini yaratish (“Hayrat ul-abror”, “Lison ut- tayr ”).

4. Badiiy asarlarda naqshbandiya ta’limoti g’oyalari targ’ib etish (“Xazoyin ul-maoniy ”, “Devoni Foniyy”, “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’al sayyor”, “Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr ”, “Mahbub ul-qulub “Siroj ul-muslimin ”).

Bir yilgacha olam ahliga umuman va Xuroson va Hirot ahliga xususan motam erdi. Yil bo’lg’ondin so’ngra Hazrati sultoni sohibqiron alarning yil oshin base e’zoz va ehtrom bilan podshohona berib, muxlislaridin ba’zi ul hazratning mutahhar marqadi boshida oliy imorat solib, xuffoz va imom va muqri va xuddom ta’yin qildi. (Bu ishlarni Navoiyning o’zi qil- gan) Va nazm ahli ko’p tarixlar aytib o’qudilar. Ul jumladin, xuruf roqimi bu marsif bila tarixni aytib, yil oshi tortarda sultoni sohibqiron oliy majlislarida o’tkardi va hukm bo’ldikim, mavlono Husayn voiz minbar ustida uqdi:

Gavhari koni haqiqat, durri bahri ma’rifat,
Ku baxaq vosil shudu dar dil nabudash mosivox-
Koshifi sirri ilohiy bud beshak z-on sabab,
Gasht tarixi vafotash «kashfi asrori Iloh».

(Haqiqat konidin gavhar, ma’rifat dengizidin dur, Haqiqat birla tinch erdi, dili ham bir haqiqatgoh- Ul Iloh sirrin ochuvchi erdi, beshak shul sabab, bo’ldi tarix vafoti «kashfi» asrori Iloh».)

Jomiy vafoti haqida yana bir ta’rix juda keng tarqalgan, unda: «Dud az Xuroson bar omad!» ya’ni «Xurosondan tutun chiqib ketdi!» deyiladi. Jomiy o’limiga Xuroson xalqlarining qayg’usini ifoda etgan bu jumladagi Xuroson (ya’ni abjad hisobi bilan 912)dan tutun (ya’ni 14) chiqarib yuborilsa (912—14-898), Jomiy vafot etgan yil kelib chiqadi.

Shunday qilib, xalqning sevimli shoiri, sultonlar nasihatgo’yi, ilm, san’at ahlining maslahatchisi, ma’rifat homiysi Abduraxmon Jomiy 1492 yil 8 noyabrda olamdan ko’z yumdi.

Butun Hirot uning motamida bo’lib, bir yilgacha aza tutdi. Bir yildan so’ng uning sadoqatli do’sti Alisher Navoiy yil oshi qilib berdi.

Jomiyning mozori Hirotida, unda maqbara ham qurilgan, ammo bu maqbarada ulug’ shoirning jasadi bor-yo’qligi noma’lum. Buning tarixi quyidagicha:

1510 yilda shoh Ismoil Safaviy Hirotni bosib oladi. O’taketgan mustabid shia ulamolari Jomiyning o’zlarining ashaddiy dushmanlari hisoblar edilar. Jomiy maqbarasini buzib, shoir tanasini undan chiqarib tashlashga buyruq bo’ladi.





Ammo Jomiyning o'g'li Ziyovuddin Yusuf bu falokatning oldini olib, otasining muborak jasadini yashirincha boshqa yerga ko'chirgan edi. Vahshiylar mozordan shoir jasadini topolmadilar.

Rivoyatlarga ko'ra, Jomiy jasadi keyinchalik qaytadan o'z mozoriga qo'yilgan, ammo buning qanchalik haqiqatga to'g'ri ekanligini aytish qiyin.

Bu ulug' insonning Hirotdagi hozirgi maqbarasi XX asr boshlarida qaytadan tiklangan maqbaradir.

Ma'lumki, adabiyotimizning asoschisi Alisher Navoiyning fors-tojik adabiyoti tarixida ham tutgan o'rne juda muhim. U o'z ustoz va do'sti Abdurahmon Jomiy bilan birgalikda XV asr Hirotda adabiy maktabining boshida turdi, juda ko'p shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, musiqashunoslar, rassomlar, me'morlar va boshqa san'atkorlarga homiylik qildi. O'zining «Majolisun-nafois», «Mufradot», «Xamsatul-mutahay-yirin», «Muhokamatul-lug'atayn» kabi chuqur ilmiy asarlarida ham, boshqa badiiy asarlarida ham fors-tojik adabiyoti va klassik tojik tili — forsiy haqida qimmatli mulohazalar, nodir ilmiy umumlashmalar qoldirdi. Buyuk shoir Foniylarning taxallusi bilan yozgan forsiy she'rlarida esa fors-tojik klassik adabiyotining mohir ustozlari qatorida tura oladigan asarlar yaratdi, o'z davrigacha besh yuz yillik taraqqiyot davrini bosib o'tgan tojik adabiyotini ma'lum darajada yangiladi.

Navoiy-Foniylarning fors tilida yozgan g'azallari, qit'alari, ruboiylari va boshqa asarlaridan tashkil topgan «Devoni Foniylarning» kitobi olti ming baytdan ortiq she'rni o'z ichiga oladi.

Navoiyning o'zi bu kitobni «Maydonul-balog'at» deb - ham atagan edi. Bunda ulug' Navoiy fors-tojik adabiyoti suxan maydonining ajoyib chavandozlari Sa'diy Sheroziy, Xisrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Jomiy va boshqalar bilan bellashib ko'rishni, bu sohada balog'at va fasohat ko'rsatishni, so'ng esa o'z ona tili — qadimgi o'zbek tilida lirik va epik asarlar yaratib, o'z xalqini yakqalam qilish, o'zbek she'riyatini ham yuksak badiiyyat ko'kiga ko'tarish maqsadini oldiga qo'ygan. Garchand Navoiyning o'zi kamtarinlik bilan:

Foniylarning naziralar yozar ekan bil:

Bu na dov, na o'zni bozorga solish.

Suxan arboblari saxiyligidan —

Murodi — tilanib bir nima olish, —

desa ham, ammo Navoiyning forsha she'rlari fors-tojik adabiyoti uchun o'tkinchi asarlar bo'lmadi. Mana, besh asrdiki, ular boy an'anali tojik adabiyotining baland cho'qqilaridan biri bo'lib porlab kelmoqda.





“Hayrat ul-abror”da bu munojotlardan so‘ng besh na‘t, Muhammad payg‘ambar maqtovi keladi. Asarda na‘tlarning ko‘pligi hozirgi turkiy adabiyot muxlislarini hayratlantiradi. Ammo Alisher Navoiy va Bobur zamonida bu mafkuraviy masala juda dolzarb, ahamiyatli edi. Eronda va Xurosonda sulton Husayn zamonida ham sunniylar va shialar o‘rtasida bahs, munozara jiddiy nizolarni, hatto qurolli to‘qnashuvlarni keltirib chiqa- rar edi. Alisher Navoiy, so‘ng sulton Husayn vafotidan so‘ng Eron shohi Ismoil Safaviy va temuriylar davlatini egallab olgan Muhammad Shayboniyxon o‘rtasida qirg‘in urushlarda ham sunniylar va shialar ziddiyati bosh masala bo‘lib turgan edi.

Gap shundaki, sunniylar Muhammad payg‘ambarga va uning ilk xalifalari, chahoryorlar (Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali)ga izzat- hurmat ko‘rsatib maqtaydilar. Shialar esa, o‘z ibodatlarida Muhammad payg‘ambardan so‘ng faqat Ali xalifa bo‘lishga munosib edi deb, Abu Bakr, Umar va Usmonni la‘natlaydilar. Zayniddin Vosifiy “Badoe’ ul-vaqoe”da yozishicha, sulton Husayn vafotidan so‘ng shayboniylarni yengib, Hirotni bosib olgan shialar (qizilboshlar) hirotlik din arboblarni avvalgi uch xalifani la‘natlab, xutba o‘qishga majbur qilishgan. Sunniy shayxlar buni rad etganida, shialar amirlari bu shayxlarni soqolidan tortib, boshini kesib, shahid qilganlar. Shu sababli, Alisher Navoiyning bu na‘tlari siyosat falsafasi sohasida ham juda dolzarb ahamiyatli edi. Navoiy avvalgi na‘tda Tangri taolo ilohiy nurini Odam Safiyullohdan Abdullohga o‘tkizgani, Abdullohdan bu nur Muhammadga o‘tgani, bu so‘nggi payg‘ambarga (hotam an-nabiya) butun insoniyatni qorong‘ulikdan yorug‘likka chiqarish vazifasi yuklanganini aytadi.

Alisher Navoiyning asosiy ijtimoiy-falsafiy qarashlari “Hayrat ul-abror” dostonining 20 maqolatida ifodasini topgan. Shoir 1-maqolatda iymon falsafasi haqida fikrlaydi. Shoir fikricha, iymon insonlikning asosiy javharidir. Iymonsiz odam inson emasdur.

Kimki jahon ahlida inson erur,

Balki nishoni anga iymon erur.

Ammo iymonli bo‘lgan insonlar ham bir-biridan farqlidir. Ba‘zi insonlar noqis (qusurli), ba‘zilari komil, ba‘zilari olim, ba‘zilari johil va xokazo. Ammo iymonli insonni uch xislatidan bilish mumkin: “Bas, ani inson atagil beriyokim, ishidur sabr ila shukru hayo”. Sabr - nisfi iymon, ya‘ni sabr - iymonning yarmidir (Hadisi sharifdan).

Shayx ul-islom musulmonlar peshvosidin iboratdur va islom muqddosida ishoratdur. Mundok, kishi olime kerak islompanoh va orife kerak muqarrabi dargoh, xiradmandi shariatshior va faqrga xursand va tariqotosor. Yaxshi-yamon





shafqati fayzi om va ulug'-kichikka irshodi nafi molokalom. Komi bo'lg'ay shar' qonunig'a rosix va barcha muftade'lar bid'atiga nosix. Angakim, bu nav' bo'lg'ay oyini islom Shayx ul-islom desa bo'lur vassalom.

Bayt:

Mundin o'ldi muqarrabi Boriy,
Shayx ul-islom piri Ansoriy.

Mumtoz adabiyotda "o'likni tiriltirish" ifodasi hazrati Iyso alayhissalom mo'jizalariga asoslanadi. "Lab", "nafas", "anfos", "tirguzmok" so'zlari Iyso Masih zikri bilan yonma-yon keladi. "Jon va jonon" g'azali matla'ida bu nom uchramasa ham, satr zamirida mavjud. Iyso Masih ul zotning Qur'oni Karimda ta'kidlangan nomi. Bu ululazm payg'ambar o'z nafasi bilan o'liklarni tiriltirgani bois she'riyatda ma-jozan sevgili labi jonbaxshlik jihatidan Iyso Masih va ul zotning nafasiga qiyos qilinadi. "Masihonafas", "Masihonafos", "Masihodam", "Masihvash", "Iysiyo jon" tavsiflarining qo'llanishi shundan. Masalan, Navoiy yozadi:

Sarig' libos aro ul nushlabki, xandondur,
Erur Masihki, xurshid ichinda pinhondur...

"Capiq libos ichida ul shirinlab xandon turgan chog'ida xuddi quyosh ichra yashirin Iyso Masih kabi o'likka jon bag'ishlaydi". "Quyosh ichida yashiringanlik" esa Iyso alayhissalom aslo o'ldirilmasdan, aslo chormix qilinmasdan, yuksakka ko'tarilganiga ishora. Bu - ilohiy haqiqat. Chunonchi, Qur'oni Karimda Oллоh taolo, "Aniqki, uni o'ldirmadilar. Balki, Ollox uni o'z huzuriga ko'tardi" (Niso surasi, 157-158-oyatlar) deb marhamat qiladi. Faqih Abulays Samarqandiy bu oyatni sharhlab: "Olllox taolo Iyso alayhissalomni o'zidan boshqasining hukmi joriy bo'lmaydigan bir maqomga yuksaltirdi. Hukm va hikmat egasi tanho Udir", deydi. "Xurshid ichinda pinhon" deganda Navoiy ana shu yuksak maqomga ishora qiladi.

Yana bir misol:

Ul Masih anfosi jonbaxshu labi - hayvon suyi,
Oллоh-Oллоh, necha jonim notavon bo'lg'usidir!..

"Ul Masihning nafasi jon bag'ishlovchi, labi esa hayot suvidir, Oллоh-Oллоh, yana mening jonim nechun bunchalik notavon bo'ladi?.."

Yana bir misol:

La'lidin tirguzmak etsam orzu, ayb etmangiz,
Kim, kishi ulturmoq etmaydur Masihodin tama!..

Ma'shuqaning la'li labidan meni tiriltirishini orzu kilsam, ayb qilmangiz.
Axir, Iyso Masihdan o'ldirish kutilmaydi-da!"





Mumtoz she'riyatdagi irfoniy istilohlarning mantiqiy quvvati shundaki, Iyso alayhissalomning o'z nafaslari bilan o'likni tiriltirish mo'jizasi aslo rivoyat yoki afsona emas, balki ilohiy Kalom bilan sobit tarixiy haqiqatdir. Chunonchi, Qur'oni karimda Iyso alayhissalomning Bani Isroilga aytgan so'zlari quyidagicha bayon etiladi: "Men sizlarga (o'zinning Hak payg'ambar ekanim haqida) Parvardigoringizdan oyat-dalil keltirdim. Men loydan qush timsolini yasab, unga puflasam, u Ollohning izn-irodasi bilan hakikiy qush bo'ladi. Va yana ko'r, pes kasallarini tuzata olaman va Ollohning izni bilan o'liklarni tiriltiraman va uylaringizda saqlaydigan narsalaringizni aytib berishga qodirman. Agar mo'min bo'lsalaringiz, albatta bu ishlarda sizlar uchun aniqoyat-dalillar bordir" (Oli Imron surasi, 48-49-oyatlar).

Yana Olloh taolo Qur'oni Karimda bunday deydi: "Eslang, Olloh aytgan edi: "Ey Iyso ibn Maryam! Senga va onangga bergan ne'matimni yodingga ol, qaysiki, seni Ruhul-Qudus (Jabroil farishta) bilan quvvatladim, odamlarga beshikda va voyaga yetganingda gapirding. Senga yozuvni, hikmatni, Tavrot va Injilni ta'lim berdim. Mening iznim bilan loydan qush shaklini yasading. So'ngra unga dam urganingda, u Mening iznim bilan (chinakam tirik) qushga aylandi. Mening iznim bilan ko'r va pesni tuzatding. Mening iznim bilan o'liklarni (qabrlaridan tirik holda) chiqarding..." (Moida surasi, 110-oyat).

Binobarin, tasavvufiy adabiyotning suyangan tog'i - Qur'oni Karim. o'likni tiriltirish haqidagi majozning haqiqati ham «(Qur'oni Karimdadir. Zabur, Tavrot, Injilning asl nusxalari va Qur'oni Karim aslo inson tafakkuri mahsuli emas, balki haqiqiy ilohiy kalom, Ollohning muqaddas so'zidir.

Olloh barcha payg'ambarlarni o'z davriga xos mo'jizalar bilan quvvatlantirgan, xususan, Iyso alayhissalomni ham. Diqqat qilsak, misol keltirilgan oyatlarning avvalgisida "Ollohning izni bilan" degan ibora va keyingisida "Mening iznim bilan" degan ilohiy so'z ta'kidlanmoqda. Bedavo kasallarni tuzatish va o'likni tiriltirish amalini zohirda Iyso alayhissalom bajardi, lekin mohiyatda bu faqatgina Ollohning izn-irodasi bilan voqe bo'ldi.

Bu - Ollohning qudrati, Ollohning tajalliyotidir. O'likni tiriltiruvchi nafas Iso alayhissalomniki, ammo bu nafasni ato etgan zot Ollohdir. Binobarin, mumtoz she'riyatdan, ayniqsa, Navoiydek muvahhid zot majozlaridan e'tiqodiy nuqson izlash insofdan emas.

Alisher Navoiyning islomga munosabati in'ikosi (zuhur etishi) masalasida xulosa chiqarilganda, mutafakkir shoirning she'riyati tasavvufona, islomiy she'riyat ekanligiga iqror bo'lamiz. "Sirojiul - muslimin" (Musulmonlar chirog'i) "Arbain" (Qirq hadis) asarlarini bitgan, 770 ta so'fiylar hayot - faoyaliyatini





THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES

International scientific-online conference



yorituvchi “Nasoyimul – muhabbat” asarlari bilan shoir islom dini ravnaqiga
hissa qo’sha olganligini e’tirof etamiz.

